



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI

**YANGI O'ZBEKISTON: FAN,
TA'LIM VA INNOVATSIYA
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN
MATERIALLARI TO'PLAMI**



**9-10-APREL
2024-YIL**



WWW.JBNUU.UZ



INFO@JBNUU.UZ



[JBNUU.UZ](https://www.instagram.com/jbnuu.uz)



[JBNUU.UZ](https://www.facebook.com/jbnuu.uz)



[@UZMUJIZZAXFILIALI](https://www.telegram.me/uzmu_jizzax_filiali)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**YANGI O‘ZBEKISTON; FAN, TA’LIM VA
INNOVATSIYA**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-tehnika anjuman materiallari
to‘plami*
(2024-yil 9-10 aprel)

JIZZAX-2024

9.Usarov J.E. Eshnaev N.J., Kobilova Sh.X. Klaster pedagogicheskogo innovatsionnogo obrazovaniya: effektivnost i perspektivy klastera na praktike / Klaster pedagogicheskogo obrazovaniya: problemy i puti resheniya. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya, 25-26 iyunya 2021 g. -B. 305-313.

YUNONISTONDA POLIS BOSHQARUV TIZIMINING O'ZIGA XOSLIGI

Toshtemirov Akram Mengli o'g'li

CHDPU "Umumiy tarix va ta'lim metodikasi"
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Yunonistonning polislari xaqida qisqacha so'z yuritiladi. Uning boshqaruv shakli, axolisi, turmush tarzi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'z: Afina ,Sparta, yunoniston, jamoa-polis, Akropol, agora, ibodatxona, teatr, xalq yig'ini o'tadigan maydoni.

Qadimgi dunyo tarixini Yunoniston polislarisiz tasavvur etish juda ham qiyin. Chunki polislarning tarixiy ahamiyati juda ham kattadir. Polislari tarixini o'rganish ayniqsa, boshqaruv sohasi uchun barcha davrlarda muhim hisoblangan. Yunon polislariida erkin dehqon xo'jaligi asosiy ishlab chiqaruvchi bo'ldi. Jamoaning alohida bir ko'rinishi sifatida jamoa-polis jamiyat tashkilotining asosiy shakli bo'ldi. Keyinchalik polis shahar-davlatga aylandi. Har bir oila iqtisodiy mustaqil birlik bo'lib, ular huquqlarda teng edilar. Jamoada shakllanayotgan urug' zodagonlari jamoani o'z nazorati ostiga olishga urinar edilar. Polis-jamoa asosan ikki vazifani bajargan: aholini va hududni qo'shnilar bosqini va tazyiqidan himoya qilish va jamoaning ichki munosabatlarini tartibga solish. Hali davlat tashkiloti yuzaga kelmagan edi. Mil.avv. IX asr oxirida yunon dunyosi dehqonlarni birlashtirgan yuzlab kichik polis-jamoalardan yoki ular katta-kichik qishloqlardan iborat edi. Asosiy iqtisodiy birlik mustaqil xo'jalik yuritish asosida tirikchiligini o'tkazadigan, oddiy turmush kechirib, tashqi dunyo bilan aloqasi bo'lmagan patriarxal oila bo'lgan. Yunon dunyosida hali katta yer egalari, yersiz, birovga qaram oilalar, odamlar va jamoa a'zolari yo'q edi. Hunarmandchilikning sohasi bo'lgan kulolchilikda protogeometrik usul shakllandi. Dafn marosimlari o'zgardi. Endilikda tuproqqa dafn etish o'rniga jasadni krematsiya qilish (yoqish) rasm bo'ldi. Bolqon Yunonistonidan yuqori darajada rivojlangan Sharqqayunonlar kirib kela boshladi. Mil.avv. XI asr oxiridan Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'ida yunon qo'rg'onlari paydo bo'lib, ularning aholisi eoliy, ioniy va doriy shevalarida so'zlashgan.^[1]

Qadimgi yunon jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy tashkilotining asosiy shakli polis edi. Polis bu – jamoaning alohida tipi bo'lib, dehqon va shahar aholisini o'zida birlashtirgan yerga ishlovchilar – fuqaro jamoasi edi. Yunon polisining taraqqiyoti va shakllanishini belgilaydigan asosiy shartlari quyidagicha edi: Eng avvalo, davlat va xususiy mulk birlashgan antik mulkchilik shakli edi. Yunon jamoasi a'zosi bo'lgan fuqaro yerga egalik qilish huquqiga ega edi. Har bir fuqaro polis hududida yer ulushiga ega bo'lishi shart edi. Yerga egalikning oliy huquqi fuqarolar jamoasiga tegishli edi. Polis tashkilotining ajralmas qismi fuqarolik muassasasi edi. Polis aholisi to'la huquqli fuqarolar, to'laqonli huquqga ega bo'lmagan va huquqi bo'lmagan aholi toifalaridan iborat edi. Polis jamoasi tarkibiga kirgan fuqarolar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarning majmuasiga ega edilar. Faqat polis fuqarolarigina aholining imtiyozli qismini tashkil etar edi. Fuqaroning asosiy ramzi ozod kishi mavqeyi edi. Yunon fuqarolik mavqeyini fuqaro ota-onadan tug'ilishi bilan olar edi. Fuqarolik huquqini boshqa polisdan kelganlarga sovg'a qilishga faqat polisning xalq yig'ini haqli edi. Oligarxiya hukmron bo'lgan polislarda

fuqarolik mavqeyiga ega bo'lish uchun fuqaro mulkiy senz, yerga egalik, og'ir qurol-aslahasi mavjudligi shartlarini bajarishi lozim edi. Polisning iqtisodiy asosini qishloq xo'jaligi, yerga fuqaroning erkin mehnat qilishi tashkil etar edi. Yerga egalik, dehqonchilik uzoq vaqt polis fuqarosining imtiyozi bo'lib qoldi. Polis fuqarosidan boshqa hech kim uning hududida yerga egalik qilish huquqiga ega emas edi. Polis fuqarolar jamoasiga tegishli jamoa yerlariga egalik qila olmas edi. Har bir fuqaroning eng muhim huquqi va bir vaqtning o'zida majburiyati, bu uning o'z polisining himoyasida shaxsan ishtirok etishi edi. Uncha katta bo'lmagan yunon polislari muntazam qo'shin saqlash qobiliyatiga ega emas edilar. Shu sababli, uning himoyasi erkaklar zimmasida edi. Qo'shinning asosini tashkil qilgan og'ir qurollangan falangani o'rta hol fuqaro-dehqonlar tashkil etar edi. Yunon polisining ajralmas qismi – fuqarolik jamoasida o'z-o'zini boshqarish edi. Xalq yig'ini, kengash, sud va ijroiya hokimiyati lavozimlari fuqaro jamoasining qo'lida bo'lib, hech qachon undan ajralmadi. Polis jamiyatida barcha huquqiy me'yorlar manbasi xalq yig'inida ishlab chiqilgan qonun edi. Fuqarolarning qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishdagi ishtiroki ajralmas huquq edi. Shunday qilib, polis fuqarolik jamoasi a'zolari bo'lgan shahar va qishloq aholisi uyushgan yopiq jamoani tashkil qilib, o'z imtiyozlari va huquqlarini qat'iy saqlab, himoya qilar edi. Polis hududi shahar va uning atrofidagi qishloqlarni o'z ichiga olgan. Yunon shahar-davlatlari hududi va aholisi soni bo'yicha har xil bo'lgan. Eng katta shahar-davlat Sparta hududi 8400 km² bo'lib, aholisi 150- 200 ming kishi, Afina hududi 2500 km², aholisi 120-150 ming kishi. Hududi 30-40 km², aholisi 5-12 ming kishi, 1000 kishidan 2000 ming kishigacha bo'lgan yunon shahar-davlatlari ham bor edi. Lekin maydoni 30-40 km² (5x 8 km), aholisi bir necha yuz kishi bo'lgan polislari ham mavjud bo'lgan [2]. Shu tarzda yunon polisi mitti davlat bo'lib, uning hududini 2-3 kunda piyoda aylanib chiqish mumkin edi. Polis-shahar davlatning uncha ko'p sonli bo'lmagan fuqarolari bir-birlarini yaxshi tanigan, har bir fuqaroning kelib chiqishi va yurish-turishi barchaga ma'lum bo'lgan polis-davlat hududi markazida shahar bo'lib, bu yerda qishloq aholisining bir qismi: hunarmandlar, savdogarlar yashagan, xalq yig'ini to'plangan ibodatxona bo'lgan. Odatda, shaharlar portlar, gavanlar bilan dengiz sohiliga joylashgan. Shahar markazida tepalikda mustahkamlangan qal'a – akropol bo'lib, bu yerda ibodatxona, shahar xazinasi binosi bo'lgan. Akropol yonida bozor – agora maydoni bo'lib, bayramlar, sport musobaqalari va xalq yig'ini o'tkazilgan. Polis hududida bir necha qishloqlar joylashgan, lekin shahar markazi boshqaruvi bitta bo'lgan. Polisda aholi asosan uzumchilik, zaytun ekini, hunarmandchilik, savdo bilan shug'ullangan. Aholining ijtimoiy qatlami asosan mayda dehqonlar, hunarmand va savdogarlardan tashkil topgan. Har bir yunon polisi suveren davlat bo'lib, o'z fuqaroligi, qonunlari, hokimiyat organlari, ibodatxona, teatr, xalq yig'ini o'tadigan maydoni, palestr, gimnasiy va stadion kabi jamoat inshootlariga ega edi. Yunon polislarning barchasi Spartadan tashqari, shahar atrofida birlashgan bir necha qishloq majmuasi edi. Sparta 5 qishloq birlashgan polis edi. Har bir polisda vaqt o'tishi bilan polis tuzilmasi tugallangan shaklni oldi va barqaror fuqarolik siyosiy tashkiloti (demokratiya yoki oligarxiya) shaklida faoliyat ko'rsata boshladi.[3]

Xulosa qilib aytganda qadimgi dunyo tarixi uchun Yunoniston polislari beqiyos ahamiyatga egadir. Polislarning shakllanish tarixi, ularning o'zaro aloqalari, aholisining turmush tarzi, polislarning boshqaruvi, iqtisodiyoti undan keying davr uchun g'oyat ulkan hissa qo'shgan. Polislardan andoza olgan holda ularning qonunlarini o'rganib chiqib keyingi davrlarda foydalanishlar ko'p uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi) / o'quv qo'llanma / T.: "Navro'z", 2009.

2. D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov „Jahon tarixi /o‘quv qo‘llanma/. - Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020
3. Jahon tarixi: I qism. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim / Ravshan Rajabov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Boynazarov F. A. Qadimgi dunyo tarixi. T.: 2004
5. История древнего мира/Под ред. И. М. Дяконова, В. Д. Нероновой, И. С. Свенцицкой. М.: 1983, т. I, лекция 15
6. Греции и Рима. Практикум для студентов-заочников исторических факультетов пединститутов. М.: 1976.

KO‘RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYAT VA DARS SAMARADORLIGIGA ERISHISH YO‘LLARI

Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrası v.b.

dotsenti n.achilov@cspi.uz

Annotatsiya. Hozirgi zamon talabi bo‘lgan dars samaradorligi va yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish. Shuning uchun o‘qituvchining darsga bo‘lgan tayyorgarligi darsning o‘quvchilarga qiziqarli va tushunarli o‘tishi ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu maqolada chizmachilik darslarining samaradorligi va o‘quvchilarning bu fanga qiziqishlarini oshirishda ko‘rgazmali qurollaridan qanchalik samarali foydalanishi usullari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. konsepsiya, metodika, chizmachilik, pedagogika, bilim, interaktiv metod, mustaqil ta‘lim, innovatsiya, interaktiv metod.

Ta‘lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o‘shib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan hamda jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashga qodir bo‘lgan - komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur‘atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda. Bu o‘z o‘rnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, o‘qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas‘uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo‘lmaydigan bir haqiqat bor - qilingan barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibat o‘qituvchi mehnati orqali o‘z natijasini namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, yorug‘ kelajagimiz oldidagi mas‘uliyatlilik, ko‘rsatilayotgan yuksak e‘tiborga munosib javob berish talab etiladi. Bu esa farzandlarimizning chuqur bilim egallashlarida asosiy rol o‘ynaydigan sifatli darsda namoyon bo‘ladi.

Har qanday fanni o‘qitish metodikasining asoslari uchta asosiy tarkibiy qismlar: konsepsiya, ta‘limning metodik tizimi va ular ta‘sir natijalarini baholashdan iborat.

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta‘limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta‘limni tashkil etishga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Ayni vaqtda ta‘limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi

MUNDARIJA	
Qarshiboyeva Xurinisa Karimovna TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURINING MAZMUN-MOHİYATI	3
Bakhtiyar Dilshatovich Bekmatov TRILOGY BY N.D.PERUMOV “RING OF DARKNESS” - CONTROVERSY WITH J.R.TOLKIEN	5
Jo‘rayev Arslon, Sh.B.Jumayeva MILLIY G‘OYAGA VA GLOBALASHUV DAVRI	8
Mexritillayev Madiyor, Sh.B.Jumayeva MEDIA SAVODXONLIK VA DEMOKRATIYA	9
Mirzayeva Nigora, Sh.B.Jumayeva QONUNLAR - MUSTAHKAM OILA KAFOLOTIDIR	10
Тоштемирова Махлиё, Ш.Б. Жумаева ЁШЛАРИМИЗ УЧУН ҲУҚУҚИЙ МЕРОС ХАЗИНАСИ – ҲАДИСЛАР ШАРҲИ	12
Холмўминов Адхам Ўктам ўғли, Ш.Б.Жумаева БАҲАМОЛ АВЛОД МАНФААТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	14
Eshquvvatova Maxfuza, Sh.B.Jumayeva YOSHLAR MA'NAVİYATI VA “OMMAVIY MADANIYAT” TA'SIRI	15
Ахмаджанов Дониёр Бахтиёрлович ТАЛАБАЛАРДА БАҒРИКЕНГЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ	17
Nurmatova Shaxnoza Shavkatbekovna DARSGA IJOBIY MUNOSABATDAGI BOLALAR SHAXSINING RIVOJLANISH STRUKTURASI	20
Abduqaxxorov Muxridin, Nuraliyev Umidjon Abdulkarimovich RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA FILOLOFIYA FANINING TRANSFORMATSIYASI	22
Ashurova Sidiqabonu, Nuraliyev Umidjon Abdulkarimovich BO‘LAJAK TARJIMON-O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA KLASSTER TIZIMINING O‘RNI	25
Dexqonboyeva Moxira, Nuraliyev Umidjon Abdulkarimovich BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI TA‘LIMNING YANGICHA SHAKLI	27
Mirzakarimov Baxtiyor, Nuraliyev Umidjon Abdulkarimovich RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RUS TILI FANINING O‘QUVCHILARINING IJODIY KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	30
Inomjonov Naimjon, Nuraliyev Umidjon MAKTABLARDA INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATINI O‘RGATISH	32
Mirxalikov Akmal, Isoqov Nurmuhammad JALOLIDDIN MANGUBERDI O‘ZBEK XALQINING DOVYURAK FARZANDI	38
Xurramov Xudoynazar, Xudoynazarov Asror SHAROF RASHIDOVNING RAHBARLIK FAOLIYATI	41
Keldiyorov Diyorbek, Obloqulov Shermuhammad ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HINDISTON TARIXIDA TUTGAN O‘RNI.	44
Xusanov Jamshid, Xushbaqov Fayoz ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK SHOH VA SHOH	45
Qurbonov Nurbek, Ozodova O‘g‘iloy AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SOLIQ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR	47
O‘ktamov Umid Ilxomboy o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI DASTLABKI ETNIK JARAYONLARGA A. ASQAROV VA K. SHONIYOZOV QARASHLARI	49
Mamasidiqov Ibroxim Mamasodiq o‘g‘li, Jaynarov Obidjon Hamid o‘g‘li TA‘LIMDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI	52
Toshpo‘latov Hamidullo, Sulaymonova Shoxsanam Absamotova RAQAMLI PEDAGOGIKANING RIVOJLANTIRISHNING MODDIY-TEXNIK BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH VA TA‘LIM ZAHIRALARINI YARATISH	54
Userbayeva Feruza Inoyat qizi, Sulaymonova Shoxsanam ALEKSANDR MAKEDONISKIYNING HARBIY YURISHLARI VA SARKARDALARI	55
Abduraimov Asadbek, Sulaymonova Shoxsanam Absamotova HARBIY ASKARLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR SIYMOSSI	58
Abduraxmonov Bobir Baxrom O‘g‘li, A.K.Nafasov PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	61
Boboxonov Boboxonbek Rajid o‘g‘li, X.Q.Xusanov YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA PRINSIPLARI.	64
G‘urboniv Abrorjon Ikromjon o‘gli, A.K.Nafasov FAN MAVZUSI BO‘YICHA MAQSADNI BELGILASH	66
Mamirov Ziyodulla Amirdin o‘g‘li, A.K.Nafasov	69

MAXSUS FANLARNI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH MUAMMOLARI VA VAZIFALARI	
Davlatova Munisa Aminovna, Aminova Ozoda Qadamboy qizi, Rajabova Gulrux Jumamurod qizi BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARDA OG'ZAKI VA YOZMA HISOBNING O'RIN ALMASHTIRISH, GURUHLASH VA TAQSIMOT QONUNLARINI QO'LLASHNING AXAMIYATI	71
Matenova Feruza Maxamatoli qizi THE INNOVATIVE METHODS AND PRINCIPLES OF TEACHING	74
Sultanova A. M. VIRTUAL STANDS ALLOW THE STUDENT TO CONTROL THE PARAMETERS OF ACCESS TO TECHNOLOGY AND KNOWLEDGE	76
Nargiza Talipjanovna Madgapilova UZLUKSIZ TA'LIMDA PEDAGOGIK -PSIXOLOGIK HAMKORLIK, TARIXGA NAZAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV	78
Nabixanova Jamila Avazxanovna KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI	82
Soatova A.Sh. DILSHOD RAJAB SHE'RLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI	85
Imomberdiyev Sultanmurad Saitg'aniyevich DAVLAT TA'LIM STANDARTINI AMALGA OSHIRISH SHAROITIDA BOSHLANG'ICH MAKTABDA MATEMATIKA	88
Исмаилова Хурлиман Нажиматдиновна МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ОБРАЗА В ТВОРЧЕСТВЕ М. ШОЛОХОВА	91
Rahimov S.M. TOPSHIRIQLARNI AVTOMATIK TEKSHIRISH AXBOROT TIZIMINI LOYIHALASHTIRISHDA FAOL ARXITEKTURANING IMKONIYATLARI	93
Abdimaylonov Murodjon Abdimaylon o'g'li, Uzoqov Ibodullo Abduganiyevich BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA PSIXODIAGNOSTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI	96
Qodirova Nargiza G'afur qizi, Safarova Sanobar Omontashevna ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING RUHIY VA JISMONIY RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARINING MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI JARAYONIGA TA'SIRI	100
Raximova Farog' atxon Ikromovna MAKTABGACHA TA'LIMDA DUAL TA'LIMNI JORIY QILISH MASALASI	105
Mexmonova J.M. BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA AKSIOLOGIK POTENSIALNI RIVOJLANTIRISH	109
Xotamqulova Ozoda Mahammadali qizi, Uzoqov Ibodullo Abduganiyevich KREATIVLIK VA UNING MAZMUN-MOHIIYATI	111
Tuychiboyev J.I., Shinpo'latov O'R. Xoldorov J.X. EKSPERIMENTAL GIPOTIREOZ MODELIDA QON PLAZMASIDA OQSIL MIQDORINI ANIQLASH	116
T.Ch.Tangriyev, T.N.Absamatov, H.H.Mahmudaliyeva POTEXVIRUSLAR OILASIGA MANSIB VIRUSLARNING QISQACHA XARAKTERISTIKASI	117
Absamatov T. N., Tangriyev T.Ch., Xoldorov J. X. CHIRCHIQ SHAHAR QABRISTONLAR HUDUDINING IQLIMI VA TUPROQ HOLATI	120
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna UZLUKSIZ INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOGIK FAOLIYAT NI TASHKIL ETISH HAMDA PSIXOLOGIK MUVOFIQLASHTIRISH	122
Toshtemirov Akram Mengli o'g'li YUNONISTONDA POLIS BOSHQARUV TIZIMINING O'ZIGA XOSLIGI	127
Achilov Nurbek Norboy o'g'li KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYAT VA DARS SAMARADORLIGIGA ERISHISH YO'LLARI	129